

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi

*60721700 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent -2023

21 08 23 367

ISHLAB CHIQILGAN:

- Geologiya fanlari universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1. Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash(tasniflash) mumkin.....	8
2.3.3. 60721700 – <i>Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i.....	11

1. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. *Qo'llanish sohasi.*

1.1.1. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor–o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* – tabiiy bilimlar sohasidagi yo'nalish bo'lib, u gidrogeologiya sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va uslublari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- Gidrogeologik va muhandis-geologik ishlarini amalga oshiruvchi bo'linmalar;

- geologik korxonalar va tashkilotlar, ular tomonidan xududlarda yer usti va yer osti suvlarini qidirish va baholash hamda muhandis-geologik jarayonlarni o'rganish bo'yicha olib boriladigan dala (eksperimental) tajriba ishlari;

- laboratoriya majmualari, ularda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, zamonaviy jixozlari, gidrogeologik va muhandislik geologiyasiga doir masalalarni yechish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar talqini va kompyuter dasturlari asosida ularni qayta ishlash majmualari;

- Gidrogeologik va muhandis-geologik ma'lumotlardan foydalanadigan va ularni talqin qilish bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish korxonalari, birlashmalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining suv inspeksiyalari va boshqalar.

1.2.3. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:*

- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *geologiya-qidiruv ishlari;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ishlab chiqarish-texnologik faoliyati.*

1.2.4. 60721700 – *Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.*

60721700 – Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investiyon loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Geologiya-qidiruv ishlarida:

- dala geologik izlash va qidirish ishlarini o'tkazish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uslublarini o'zlashtirish, fond materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish, zaxira hisoblashning zamonaviy metodlarini qo'llash;
- yer osti suvlari konlarini texnik-iqtisodiy baholash, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashni, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini rivojlanish qonunlari va qonuniyatlarini mukammal bilishi va ulardan foydalanishning zamonaviy metodlarini qo'llay olish;
- geologiya-qidiruv ishlari davomida bajarilayotgan ilmiy, ishlab chiqarish va texnologik masalalarni yechim topishida fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olish;

Loyihaviy-konstruktorlik:

- gidrogeologiya va muhandislik geologiyasining strategik yo'nalishlarini aniqlash va tadqiq qilish loyihasini tizimiy yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish;
- bajarilayotgan tajriba va amaliy ishlar natijalari bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda informatsion texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini (tayyorgarlik profiliga mos ravishda) qo‘llash.

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

- ishlab chiqilgan dasturlar asosida geologik jarayonlar, ularning xosilalari, tog‘ jinslari, minerallar, qattiq, suyuq va gazsimon foydali qazilmalar, Yer qa‘rining fizik xolati, yer osti suvlari genezisi, turlari, tarkibiy tuzilishini aniqlash;
- suv sifati va uni sertifikatlashni ta‘minlash jarayonlarini tahlil qilish, sintez qilish va optimallashtirish metodlarini ishlab chiqish;
- internet tarmog‘idan gidrogeologik va muhandis–geologik yutuqlar haqidagi eng yangi ilmiy ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy–tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini muvaffaqiyatli yechish.

Ishlab chiqarish–texnologik faoliyatda:

- tashkilotning geologik-ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli qarorlar, buyruqlar, topshiriqlar va boshqa boshqaruv materiallarini;
- xudud geologiyasining neftgazdorligi va konlarini;
- neft va gaz konlarini qazib olish qoidalarini;
- qazib olinayotgan xom ashyoga bo‘lgan sanoat talablarini;
- burg‘i quduqlarining mavjud промысловых va geofizikaviy tadqiqot usullarini;
- burg‘i quduqlarini qazish va ekspluatatsiya qilishni va qo‘llanilayotgan asbob-uskunalar tavsifini;
- burg‘ilash texnologiyalari asoslarini, burg‘i quduqlarini joriy va kapital ta‘minlashni;
- iqtisodiyot asoslarini, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish;
- geologik xujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini;
- chizma-grafiklarni tuzish tamoyillari va usullarini, geologik xujjatlashni va karotaj materiallarini qayta ishlashni;
- yer qa‘ri va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini;
- xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish santariyasi qoidalarini;
- geologik materiallarni xisobga olish va saqlash qoidalarini;
- mehnat qonunchiligi asoslarini bilishi kerak:

2. 60721700 – Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash,

tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- ishlab chiqarish jarayonini sifatli boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va tadbir qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vosita va resurslarini to'g'ri rejalashtirish;

- axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq jarayonlar monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlab chiqarish jarayonlarining mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishini nazorat qilish;

- muhandislik va konstruktorlik yechimlarni amaliyotga tadbir qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma-xilligi sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish bo'limlari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajariladigan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga ta'sirini va ishchi-xizmatchilarning mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilib borish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

- Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

- Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

- Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

- Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi

bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtdan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlar majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

C. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlar o'tkaziladi:

1-bosqichda malakaviy amaliyot – O'quv ekologik tanishuv amaliyoti iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, o'tilgan fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;

2, 3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonalar, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonalar, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Gidrogeolog, muhandis-gidrogeolog.

2.3.2. 60721700 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4620	154
Tanlov fanlar	1530	51
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60721700 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4620	154	
1.01	MATB114	Matematika	420	14	1,2,3
1.02	UYTB104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FALB205	Falsafa	120	4	4
1.04	URTB104	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.06	KEBB106	Kimyoviy elementlar va ularning birikmalari	180	6	1
1.07	FIZB209	Fizika	270	9	2,3
1.08	DINB205	Dinshunoslik	120	4	3
1.09	INFB105	Informatika	150	5	1
1.10	GTPB104	Geodeziya va topografiya asoslari	120	4	2
1.11	UGLB110	Umumiy geologiya	300	10	1,2
1.12	YEOSDB305	Yer osti suvlari dinamikasi	150	5	6
1.13	GGFMGFB205	Gidrogeofizika va muhandislik geofizikasi	150	5	4
1.14	MVKB205	Mineralogiya va kristallografiya	150	5	3
1.15	SGLB211	Strukturaviy geologiya	330	11	3,4
1.16	GMGB210	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi asoslari	330	11	3,4
1.17	FQGB206	Foydali qazilma konlari geologiyasi	180	6	5
1.18	LYOSB405	Lyosshunoslik	150	5	7
1.19	MGDB305	Muhandislik geodinamikasi	150	5	6
1.20	GGMB311	Gruntshunoslik va gruntlar mexanikasi	330	11	5,6
1.21	LITB306	Litologiya	180	6	5
1.22	YOSIRQB410	Yer osti suvlarini izlash va razvedka qilish	180	6	7
1.23	GGKB405	Gidrogeokimyo	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1530	51	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1530	51	4,5,6,7
		Jami	6150	205	
	BBAB121	Malakaviy amaliyot	600	20	2,4,6,8
	YDAB415	Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1050	35	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55


OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), gidrosfera, tabiatda suvning global aylanma xarakati, suvlar genezisi, suv xavzalari, yer osti suvlari, ichimlik suvlari, darzlik suvlari, qatlamlararo suvlar, gurunt suvlari, sizot suvlar, gidromineral suvlar, suv kimyosi, suvlardan namuna olish, suv taxlili, mikroelementlar, gidrogeologik tadqiqotlar, muhandis-geologik jarayonlar, muhandis-geologik tadqiqotlar, lyossimon jinslar, deformatsiya, geologik strukturalar, gidrogeologik suratga olish, geologik kesma tuzish, gidrogeologik xaritalash. gidrogeologiyada GAT texnologiyalari, geosinklinal, cho'kindi jinslar, qoplama yotqiziqlar, delta cho'kindilari, delyuviy, dengiz yotqiziqlari, ko'chkilar, gidrogeologik modellash, gidrogeologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minotlar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:



Geologiya fanlar universiteti

Rektor _____ M.U.Isoqov

2023 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi



Direktor _____ Sh.Yakubov

2023 yil « _____ » _____

M.O.

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti




Rektor _____ S.M.Turabdjano

2023 yil « _____ » _____

M.O.

"Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi
instituti" DM



Direktor _____ Q.R.Mingboev

2023 yil « _____ » _____

M.O.

"O'zbekgidrogeologiya" DUK



Direktor _____ M.Toshpo'latov

2023 yil « _____ » _____

M.O.

Geologiya fanlari universiteti
60721700 – Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi bakalavriat ta’lim yo’nalishi
bo’yicha malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqaruvchilar va asosiy kadrlar
iste’molchilari o’rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“___” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Geologiya fanlari universiteti rektori M.U.Isoqov, “Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” DM direktori Q.R.Mingboyev va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori S.M. Turabdjano bilan birgalikda Geologiya fanlari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriatura ta’lim yo’nalishi malaka talablari va o’quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60721700–Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi bakalavriat ta’lim yo’nalishi.

Malaka talablari hamda o’quv rejani ishlab chiqilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 5847-sonli farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-sonli qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-sonli qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 8 iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo’mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4740-sonli qarori, 2022 yil 3 martdagi “O’zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo’mitasi tizimidagi geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-154-sonli qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Geologiya fanlari universiteti rektori

M.U. Isoqov

“Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” DM direktori

Q.R.Mingboyev

I.A. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori

S.M. Turabdjano